XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 23-aprel VII-10-51-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Viloyatning Nurafshon shahri, Yuqori Chirchiq, Parkent, O‘rta Chirchiq hamda Bo‘stonliq tumanlari hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi 404-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 14-sonli yig‘ilish bayoniga *(14.06.2021-yil 02-PA 1-9952-son*li), Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi 473-sonli qaroriga, 2024-yil 20-maydagi 321-F-sonli farmoyishiga hamda 2023-yil 18-fevraldagi 32-sonli (27.02.2023-yil 01-05/1-2562-sonli) bayoniga, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 21-iyuldagi VI-56-114-10-0-K/22-sonli hamda 2024-yil 26-apreldagi VI-90-44-10-0-K/24-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashining 2021-yil 2-iyuldagi VI/XXXVI-I-sonli, 2024-yil 26-fevraldagi VI-93-5-10-213-K/24-sonli qaroriga asosan Nurafshon shahar “Toshkent yo‘li” ko‘chasidan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyuldagi 232-sonli, “Yangi Toshkent shahri”ni barpo etish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishining 2023-yil 4-dekabrdagi 71-1-sonli *(04.12.2023-yil VM-1236)*, 2024-yil 27-apreldagi 79-sonli *(27.04.2024 yil VM 26/24-79)* bayonlari, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 21-iyuldagi VI-56-114-10-0-K/22-sonli va 2024-yil 26-apreldagi VI-90-44-10-0-K/24-sonli qarorlariga, “Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiya” hamda viloyat hokimligi o‘rtasida tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tumani Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-91-20-10-145-K/24-sonli qaroriga asosan “Mirobod” MFY hamda “Yangi Toshkent shahri” hududidan;

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-oktabrdagi 723-sonli hamda 2025-yil 18-yanvardagi 19-sonli qarorlariga, Xalq deputatlari Parkent tumani

Kengashining 2024-yil 2-dekabrdagi VII-3-011-10-141-K/24-sonli qaroriga asosan “Xo‘ja” MFY hududida qarovsiz holatga kelib qolgan “Qo‘shchinor” istiroxat bog‘ini sokin bog‘ va bog‘ga tutash bo‘lgan tuman markazini aylanib o‘tuvchi yangi avtomobil yo‘lini 4R15 “A373 avtoyo‘li (42 km) Qiziltog‘ sh. – Parkent sh. – Yagnibozor q.” avtomobil yo‘li bilan bog‘lash hududidan;

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi ““Beldirsoy-Chimyon-Nanay” halqaro umummavsumiy kurortini qurish va foydalanishga topshirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 360-sonli qaroriga, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 26-apreldagi VI-90-44-10-0-K/24-sonli qaroriga asosan Bo‘stonliq tumanidagi “Beldirsoy-Chimyon-Nanay” xalqaro umummavsumiy kurorti loyihasi amalga oshiriladigan hududdan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 454-sonli qaroriga asosan O‘rta Chirchiq tumani hududidan o‘tuvchi 4R2 “Toshkent shahri - To‘ytepa shahri - A373 avtoyo‘li (55 km)” avtomobil yo‘lining 4R21 “Toshkent aylanma avtoyo‘li” avtomobil yo‘li bilan kesishgan qismida transport qatnovidagi muammo (tirbandlik)ni oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdagi 113-F-sonli farmoyishi bilan Respublika kompensatsiya jamg‘armasidan mablag‘ ajratish uchun tegishli hujjatlarni Kuzatuv kengashiga kiritishda mulkdorlarga tegishli ko‘chmas mulk obektlarini kompensatsiya to‘lagan holda olib qo‘yish belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoillari to‘g‘risida”gi 781-sonli qonunining 21-moddasi, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining 2025-yil 14-apreldagi 16-sonli bayoni hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoillari to‘g‘risida”gi 781-sonli qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining 2025-yil 14-apreldagi 16-sonli bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 22-apreldagi 1378-sonli xulosasi hamda Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasining 2025-yil 22-apreldagi 01-01-07/4965-sonli xatida Parkent tumani hududidagi G‘anixonov Abbosxonning yer maydoniga nisbatan egalik huquqi mavjud emasligi qayd etilganligi inobatga olinsin va qarorning

3-ilovasidan unga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish ro‘yxatidan chiqarilsin.

3. Nurafshon shahar hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2024-yil 25-oktabrdagi 1/2-4-187-sonli, 2024-yil 25-noyabrdagi 1/2-4-215-sonli, 2025-yil 25-fevraldagi 1/2-4-216-sonli, 2024-yil 8-aprel 1/2-4-93-sonli bayonlari bilan **9 ta;**

Yuqori Chirchiq tumani hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2024-yil 20-martdagi AT-03-06-sonli, 6-iyundagi AT-06-17-sonli, 25-iyuldagi AT-07-21-sonli, 5-oktabrdagi SHX-10-201-sonli, 30-oktabrdagi AT-10-28-sonli, 14-noyabrdagi AT-11-29-sonli, 25-noyabrdagi SHX-11-222-sonli, 2025-yil 11-yanvardagi AT-01-01-01-sonli, 21-yanvardagi AT-01-01-03-sonli, 16-yanvardagi AT-01-01-02-sonli 3-fevraldagi SHX-02-19-sonli, 2025-yil 7-fevral SHX-02-26-sonli bayonlari bilan **16 ta;**

Parkent tumani hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2025-yil 6-fevraldagi 01-01, 10-fevraldagi 01-02-sonli bayonlari bilan **18 ta;**

O‘rta Chirchiq hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2025-yil 3-apreldagi 1/1-b-sonli, 2025-yil 14-aprel 1/1-B-20-sonli bayoni bilan **6 ta;**

Bo‘stonliq tumani hokimligi huzuridagi ishchi guruhning 2024-yil 20-iyundagi AT-06-18, 17-dekabrdagi AT-01-01-sonli bayonlari bilan **4 ta,** jami **53 ta** mulkdorlar bilan ularga tegishli ko‘chmas mulk (yer-uchastkasi, bino-inshoot)larni kompensatsiya evaziga olib qo‘yish to‘g‘risida kelishuv bayoni, mulkdorlarning rozilik xatlari olinganligi asos uchun qabul qilinsin.

4. Qarorning 1, 2, 3, 4, 5-ilovalariga muvofiq mulkdorlarga tegishli obyektlar O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi “Yer maydonlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-tamoillari to‘g‘risida”gi 781-sonli qonunning 21-moddasiga asosan belgilangan tartibda olib qo‘yishga ruxsat berilsin.

Bunda, Nurafshon shahar hokimligi (I. Klichxanov), Yuqori Chirchiq tumani hokimligi (U.Atemov), Parkent tumani hokimligi (S.Isakulov), O‘rta Chirchiq tumani hokimligi (I.Kasimov), Bo‘stonliq tumani hokimligi (J.Axmedov) zimmasiga mulkdorlar bilan notarial bitim (kelishuv) imzolash;

ajratiladigan kompensatsiya mablag‘ini o‘z qarori (farmoyishi)ni qabul qilgan holda maqsadli va samarali sarflash;

mulkdorlarga yetkaziladigan zararlar miqdorini qonunchilikka muvofiq bozor qiymati asosida manzilli, haqqoniy va adolatli to‘lanishi hamda shaffofligini ta’minlash uchun shaxsan mas’ulligi belgilansin;

mulkdorlarga yetkaziladigan zararlarni to‘liq qoplab, ular bilan notarial tartibda kelishuv bitimlari tuzilganidan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi 781-qonuniga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan olib qo‘yiladigan yer uchastkasida joylashgan ko‘chmas

mulk obyektlarini buzish to‘g‘risidagi qarorini rasmiylashtirish uchun tegishli hujjatlarni viloyat hokimligiga kiritsin.

5. Ushbu qaror Nurafshon shahri, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Parkent hamda Bo‘stonliq tumani hokimliklarining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda hamda boshqa ommaviy axborot vositalarda e’lon qilinsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov, Nurafshon shahar hokimi I.Klichxanov, Yuqori Chirchiq tumani hokimi U.Atemov, Parkent tumani hokimi S.Isakulov, O‘rta Chirchiq tumani hokimi I.Kasimov hamda Bo‘stonliq tumani hokimi J.Axmedov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 23-apreldagi
VII-10-51-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Nurafshon shahrida mulkdorlarning roziligini olgan holda kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarining
MANZILLI RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi	Kadastr raqami	Manzili	Ochiq muhokama bayoni sanasi va raqami
Jami		**8 ta noturar, 1ta turar**	**x**	**x**	**x**
1	Valiyev Xurshid	Noturar joy	11:21:40:01:02:0246	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 17-uy	2024-yil 25-oktabr № 1/2-4-187
2	Valiyeva Xurbi	Noturar joy	11:21:40:01:03:0247	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 65-uy	2024-yil 25-oktabr № 1/2-4-187
3	Yakubov G'olibjon	Noturar joy	11:21:01:02:02:5686	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 23-uy	2024-yil 25-oktabr № 1/2-4-187

4	Toshmatov Kamil	Noturar joy	11:21:01:02:02:5575	Toshkent yo‘li ko‘chasi, raqamsiz uy	2024-yil 25-oktabr № 1/2-4-187
5	Abduraxmanov Xashim	Noturar joy	11:21:01:02:03:0777	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 112-uy	2024-yil 25-oktabr № 1/2-4-187
6	Ulmasov Davron	Noturar joy	11:21:01:02:02:5574	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 43A-uy	2024-yil 25-noyabr № 1/2-4-215
7	Ulmasov Davron	Noturar joy	11:21:01:02:02:0476	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 43-uy	2024-yil 25-noyabr № 1/2-4-215
8	Maxsumova Muxabbat Sadullayevna	Noturar joy	11:21:01:02:03:2944	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 15-uy	2024-yil 25-fevral № 1/2-4-216
9	Maxamadaliyeva Zulfiya Djamilovna	Turar joy	11:21:02:01:02:0619	Toshkent yo‘li ko‘chasi, 173-uy	2024-yil 8-aprel № 1/2-4-93

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 23-apreldagi
VII-10-51-10-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Yuqori Chirchiq tumani “Mirobod” MFY hamda “Yangi Toshkent shahri” hududida mulkdorlarning roziligini olgan holda kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarining
MANZILLI RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi	Kadastr raqami	Manzili	Ochiq muhokama bayoni sanasi va raqami
Jami 16 ta, shundan, 5 ta fermer xo‘jaligi, 4 ta turar, 1 ta noturar joy, 6 ta dala hovli			**x**	**x**	**x**
1	Usmanov Darip Parpibayevich	Turar joy	11:14:01:01:02:2103	Istiqlol MFY, G‘allakor ko‘chasi, 48-uy	2024-yil 25-iyul № AT-07-21
2	“Jurabek-XXI” fermer xo‘jaligi	Fermer xo‘jaligi	11:14:000072097	Istiqbol MFY	2024-yil 6-iyun № AT-06-17
3	G‘ofurov Mirodil Shuxrat o‘g‘li	Turar joy	11:14:06:01:06:4034	Mirobod MFY, Mirobod ko‘chasi 30-uy	2025-yil 5-oktyabr № SHX-10-201

4	Axunjanova Nafisa Bekmirzayevna	Turar joy	11:14:06:01:06:0331	Mirobod MFY, Mirobod ko‘chasi 37-uy	2025-yil 5-oktyabr № SHX-10-201
5	“Mirziyod Shirin olmalari” fermer xo‘jaligi	Fermer xo‘jaligi	11:14:000102044	Uchchinor MFY	2024-yil 20-mart № AT-03-06
6	“Tano” fermer xo‘jaligi	Noturar joy	11:14:01:01:01:0090	Istiqbol MFY	2024-yil 14-noyabr № AT-11-29
7	“Odil evro invest” fermer xo‘jaligi	Fermer xo‘jaligi	11:14:000100676	Uchchinor MFY	2024-yil 25-noyabr № SHX-11-222
8	Ismoilov Ilxom Ruzimovich	Dala hovli	11:14:06:01:04:3471	Uch chinor MFY, “Binokor” BUSh ko‘chasi, 4-5-6-dala hovlilar	2025-yil 11-yanvar № AT-01-01-01
9	Nikitina Ra’no Burgutovna	Dala hovli	11:14:06:01:04:3248	Uch chinor MFY, “Olimpiyskaya derevnya” BUSh, 27-dala hovli	2025-yil 11-yanvar № AT-01-01-01
10	Tuychiyeva Munira Malikovna	Dala hovli	11:14:06:01:04:3242	Uch chinor MFY, “Olimpiyskaya derevnya” BUSh, 26-dala hovli	2025-yil 21-yanvar № AT-01-01-03
11	marxum Axmedov Raxmanberdi *(turmush o‘rtog‘i Axmedova Xanipa)*	Dala hovli	11:14:06:01:04:3302	Uch chinor MFY, “Olimpiyskaya derevnya” BUSh, 30-dala hovli	2025-yil 16-yanvar № AT-01-01-02
12	“Sherzod-xosilot” fermer xo‘jaligi	Fermer xo‘jaligi	11:14:000106471	Darxan MFY	2024-yil 30-oktyabr № AT-10-28

13	“Lina Chioe” MCHJ	Turar joy	11:14:06:01:06:4040	Yashnobod MFY, Yangi qurilish ko‘chasi, 44-uy	2025-yil 3-fevral № SHX-02-19
14	Mamatkulov Baxromjon	Dala hovli	11:14:06:01:04:3465	Uch chinor MFY, “Binokor” BUSh ko‘chasi, 6A-7-dala hovlilar	2025-yil 11-yanvar № AT-01-01-01
15	Yuldashev G‘ani Salixovich	Dala hovli	11:14:06:01:04:3480	Uch chinor MFY, “Binokor” BUSh ko‘chasi,16-17-18-19-dala hovlilar	2025-yil 11-yanvar № AT-01-01-01
16	“TANGIRBERDI-FAYZULLO” fermer xo‘jaligi	Fermer xo‘jaligi	11:14:000168822	Darxan MFY	2025-yil 7-fevral № SHX-02-26

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 23-apreldagi
VII-10-51-10-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

3-ilova

Parkent tumanida mulkdorlarning roziligini olgan holda kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarining
MANZILLI RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi	Kadastr raqami	Manzili	Ochiq muhokama bayoni sanasi va raqami
Jami		**17 ta noturar, 1 ta turar**	**x**	**x**	**x**
1	Mirxaitov Usmonali Mirabdullayevich	Noturar joy	11:09:01:02:02:0006	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
2	Miralimov O‘ktamjon Axmatovich	Noturar joy	11:09:01:02:02:0310	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01

3	Mirmuxammedova Gulchexra Xikmatovna	Noturar joy	11:09:01:02:03:0012	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
4	Zukurov Abduqaxxor To‘raxo‘jayevich	Noturar joy	11:09:01:02:01:0002	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
5	Qayumova Zulfiya Tursunboyevna	Noturar joy	11:09:41:01:01:00615	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
6	Nazirov Zuxriddin Nosirovich	Noturar joy	11:09:01:06:01:0010	Parkent shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
7	Tojiboyeva Tojibu Alimuxamedovna	Noturar joy	11:09:01:06:01:0003-0001	Parkent shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01
8	Maqsudov G‘ayrat Abduhamidovich	Noturar joy	11:09:40:02:01:0218(yer maydoni),11:09:40:02:01:01129 (bino-inshoot), 11:09:40:02:01:01131 (bino-inshoot)	Parkent shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi	2025-yil 6-fevral№ 01-01
9	Minasov Javoxir To‘lqinboy o‘g‘li	Noturar joy	11:09:01:11:01:0113	Xo‘ja MFY	2025-yil 6-fevral № 01-01
10	Risqiboyev Diyor O‘ktamovich	Noturar joy	11:09:41:01:01:0185	Xo‘ja MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	2025-yil 6-fevral № 01-01

11	Davidov Shaxobiddin Xusnitdinovich (marxum)	Turar joy	11:09:01:16:06:1460	Parkent shahri, Istiqbol MFY	2025-yil 10-fevral № 01-02
12	Abduvaliyev Yo‘ldosh	Noturar joy	11:09:01:16:01:0012	Istiqbol MFY, A.Navoiy ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02
13	Paxiyev Muxriddin Ruxiddin o‘g‘li	Noturar joy	11:09:01:16:01:0026	Parkent shahri, Istiqbol MFY	2025-yil 10-fevral № 01-02
14	Topilov Qodirjon Toxir o‘g‘li	Noturar joy	11:09:03:01:01:1099	Boyqozon MFY, Qo‘rg‘oncha ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02
15	Mag‘murov Dilshod Turg‘unboyevich	Noturar joy	11:09:01:10:01:0003	Parkent shahri, Sohil bo‘yi ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02
16	To‘ychiyev Azizjon Zokir o‘g‘li	Noturar joy	11:09:41:01:01:0248	Parkent shahri, Sohil bo‘yi ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02
17	Xoliqov Qudrat G‘ayratovich	Noturar joy	11:09:01:15:01:0006	Parkent shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02
18	“Sirot fayz plus” MCHJ	Noturar joy	11:09:40:02:01:0218	Parkent shahri, Sohil bo‘yi ko‘chasi	2025-yil 10-fevral № 01-02

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 23-apreldagi
VII-10-51-10-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

4-ilova

O‘rta chirchiq tumanida mulkdorlarning roziligini olgan holda kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarining
MANZILLI RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi	Kadastr raqami	Manzili	Ochiq muhokama bayoni sanasi va raqami
Jami - 6 ta		**x**	**x**	**x**	**x**
1	Mirzaolimov Muzaffar Ortikovich	Turar joy	11:12:01:01:07:4323	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 8-uy	2025-yil 3-aprel № 1/1-b
2	Kuzibayev Ulug‘bek Mamadaliyevich	Turar joy	11:12:40:02:01:0543	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 9-uy	2025-yil 14-aprel № 1/1-B-20
3	Suvorov Igor Kasimovich	Turar joy	11:12:01:01:01:2648	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 7-uy	2025-yil 3-aprel № 1/1-b

4	Nurmatova Qurbonbuvish Aynaqulovna	Turar joy	11:12:01:01:07:0958	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 6-uy	2025-yil 3-aprel № 1/1-b
5	Jamaqulov Foziljon Shodmonovich	Turar joy	11:12:01:01:01:2656	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 5-uy	2025-yil 3-aprel № 1/1-b
6	Niyazxodjayev Rustam Saydakbarovich	Turar joy	11:12:01:01:07:0180	O‘choqli MFY, Fayziobod ko‘chasi, 18-uy	2025-yil 3-aprel № 1/1-b

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 23-apreldagi
VII-10-51-10-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

5-ilova

Bo‘stonliq tumanida mulkdorlarning roziligini olgan holda kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarining
MANZILLI RO‘YHATI

№	Mulkdor nomi	Tasnifi	Kadastr raqami	Manzili	Ochiq muhokama bayoni sanasi va raqami
Jami		**4 ta noturar**	**x**	**x**	**x**
1	“TOSHTRANS-GAZ” MCHJ	Noturar joy	11:03:21:01:01:3487	Chimgan MFY hududi	2024-yil 16-oktabr № 01-01-1
2	“Shinam Diyor Bog‘i” oilaviy korxonasi	Noturar joy	11:03:21:02:01:0008	Chimgan MFY hududi	2024-yil 16-oktabr № 01-01-1
3	Melibayev Xaydarali Xasanbayevich va Mirzayeva Sayyora Ashirboyevna	Noturar joy	11:03:21:01:01:1797	Chimgan MFY hududi	2024-yil 16-oktabr № 01-01-1

4	Gaipov Jamshid Tulyaganovich	Turar joy	11:03:21:01:01:2525	Chimgan MFY hududi	2024-yil 16-oktabr № 01-01-1